



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №19 (том 3)
(октябрь, 2021)



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №19 (том 3) (октябрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.10.2021.

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

Батури́н Серге́й Петро́вич	кандидат исторических наук, доцент
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрина Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Усубалиева Айнура Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHGA BO'LGAN E'TIBOR Ismatova Feruza	1009
BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA GRAMMATIK O'YINLARNING RO'LI Jamila Akbarova Xasanboy qizi	1012
JAMOAT MARKAZLARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY AN'ANALARDAN FOYDALANISH Kuysinova Farangiz Ziyodulloyevna	1015
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI Maxamatova Feruza Safaraliyevna	1021
DIE ROLLE DES BUCHES IN MEINEM LEBEN Jo'rayeva Yulduz Ro'ziqulovna	1026
TUT IPAK QURTI YETISHTIRISH, TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI TALABALARI NIGOHIDA Jumanozarova Dilrabo	1029
O'ZBEK TILINI SAMARALI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV Mahmudova Oygul, Ahmedova Mohigul	1034
MODELS OF TEACHING SECOND LANGUAGE ACQUISITION Latipov Aziz Akbaraliyevich	1039
HOW TO AVOID PLAGIARISM Malika Tilavova Mamaraimovna	1044
FAN VA TEXNIKA JADAL RIVOJLANAYOTGA BUGUNGI KUNDA KIMYO FANINING ERISHAYOTGAN YUTUQLARI Mamatqulova Yulduz Nazarovana	1048
XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING SHAKLLANISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI <i>Maxammatov A, To'g'ilov O'</i>	1051
SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH Nurullayev Zohirjon Xayrullo o'g'li	1061
OQAVA SUVLAR VA ULARNI TOZALASH USULLARI Husenov Behruz Qobil o'g'li, Ibodullayev Muzaffar Ubaydullo o'g'li, Karimov Diyorbek Toshtemir o'g'li	1066
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARI IJROCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI Maxamatov A., Abilov M.	1071
ODAMLARNING HAYOT FAOLIYATIDA FOYDALANADIGAN-ETNOBOTANIK O'SIMLIKLARIMIZ Tojiboyev Sharobiddin Jamolovich, Soliyeva Munavvar Ikromjon qizi, Sheraliyev Obidjon Xomidjonovich	1078

ФИО автора: *Maxamatova Feruza Safaraliyevna*

A.Qodiriy nomidagi JDPI

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrası o'qituvchisi

Название публикации: «BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

Аnotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar tahlil qilingan. Ularning ma'naviy savodxonligini oshirishning kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

Калит so'zlar: Ta'lim-tarbiya, kasbiy kompetensiya, integratsiya, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, ma'naviyat, komillik.

PROBLEMS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation: This article discusses the professional skills of future teachers aspects that need to be considered in the analysis are analyzed. Their recommendations for the development and implementation of urgent measures to increase spiritual literacy.

Keywords: Education, professional competence, integration, training of future teachers, spirituality, perfection.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье рассматривается и анализируется вопрос повышение профессионального мастерства будущих учителей. Для этого есть необходимость разработать и внедрить в практику меры по повышению у них духовной просвещённости. Автором разработаны рекомендации.

Ключевые слова: воспитание, образование, профессиональная компетенция, интеграция, система подготовки, духовность, совершенство

Zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonlari bugungi kunda xalqaro mehnat bozorining asosiy talabi hisoblanadi. Sababi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi, o'zini namoyon qila oladigan, o'ziga ob'ektiv baho beradigan kishilar zarur. Ular jamiyat rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadilar. Bu esa o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu asosda, bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu o'rinda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va uning tahliliy ko'nikmalariga alohida e'tibor berish lozim.

Kasbiy kompetentlik, kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb-hunarga yo'naltirish –bu o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bu –kasbiy masalalarni hal etishda amaliy tajriba va bilim asosida muvaffaqiyatli harakat qilishini ta'minlashdir. Kasbiy kompetensiya va kasbiy o'zlikni anglash butun umr davom etadigan jarayon hisoblanib, inson orzu qilish, sinash, tanlash ularni amalga oshirish bosqichlaridanoq kasb-hunar tanlaydi, so'ngra kasb-hunarga kirishadi keyinroq dunyodagi kasb-hunarlarini o'zgarishiga, o'zidagi o'zgarishga, mehnatga

bo'lgan munosabatini o'zgarishiga bog'lik ravishda kasbini yoki mutaxassisligini o'zgartiradi. Komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga molik o'zida ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, insonni ezgu maqsadlari sari undaydigan oliyjanob g'oyadir.

Zamonaviy o'qituvchi obrazida komillik mujassamlashishi lozim. Bugungi kun o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish –bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish zaruriyati ta'lim muassasasiga va o'qituvchilarga qo'yilgan ijtimoiy talablarning o'sishi bilan asoslanadi.

Oliy ta'lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo'shliqlarni aniqlash asosida ta'lim berishga bo'lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi.

O'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan yana biri talabalarning o'quv faoliyatlarini ularning mayllari asosida tashkil etish va o'quvchi shaxsiga yo'naltirishdan iborat. Bular sirasiga talabalarda bilishga qiziqishlari, ularda burch hissi hamda ta'lim jarayonida mas'uliyatlilikni shakllantirish metodlari kiradi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda sub'ektlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, erishish zarur bo'lgan maqsadlar yo'nalishida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligini ko'p jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim sohasi –jamiyatning barcha muammolarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy institutdir. Zamonaviy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni boyitib, takomillashtirib borish zarur, o'quv jarayoni orqali uni insonparvarlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishga ega bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarni faollashtirish orqali,

pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash orqali yuksak ma'naviy, mas'uliyatli, ijodkor, kompetentli fuqarolarni tarbiyalash lozim. Shaxsni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirish hozirgi ta'limning asosiy masalasi bo'lib, buning uchun avvalo o'qituvchining o'zida yuksak darajadagi ma'naviy-ma'rifiy kompetentlik bo'lishi shart. Ma'naviyat –insonning o'z shaxsiy potensialini ochishga qaratilgan, ichki olamining boyish bilan bog'liq bo'lgan sifatlarning ko'rinishi. Ma'naviyat – mukammallik va ichki olamning muvozanatini o'zida aks etuvchi shaxs sifatida o'zini anglashining tavsifidir. Bizning moddiy va ma'naviy farovonligimizni ta'minlovchi asosiy mezon sanaladigan ma'naviyatning yaqqol tasavvurlarini kelajak avlodga yetkazib bermoq zarurdir. Ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish –bu o'ziga va atrofdagilarga qaratilgan xulq-atvorining ko'rinishi sifatida o'z-o'zini yaratishi va rivojlantirishi hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy kompetentlikni rivojlantirish shaxsiy rivojlanishi, ma'naviy-ma'rifiy namunaning mavjudligi (ota-ona, ustozlar timsolida), ta'lim dasturiga integratsiyalashgan umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan o'quv jarayonining tatbiq etilishi asnosida shakllanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish –shaxsning milliy va diniy qadriyatlar manbalarini o'zlashtirishi, an'anaviy axloqiy me'yorlar va ma'naviy ideallarning o'ziga, atrofdagilarga, davlatga va umuman dunyoga nisbatan munosabati; tashkillashtirilgan ta'lim jarayonida ta'lim vositalari orqali amalga oshiriladi. Ma'naviyatning ruhiy manbalari insonga muhabbat, hayotiy muvaffaqiyat va oliy qadriyatlar asosida yotadi. O'qituvchilar faoliyatining ilmiyligi –yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz lozimki, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning turli usullari bilan tanishtirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy mahorat sirlari bilan qurollantirish hamda pedagogik inovatsiyalar bilan ishlash metodikasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik

jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida pedagogik jarayon sub'ektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent: 2014. –58 b.
2. Muslimov N. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori... diss. –T.: 2007.
3. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash. –Toshkent: Fan va texnologiya. 2014, –11 b.
4. Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции "учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.